

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Бош муҳаррир:

Пардаев А.Ҳ. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

Масъул котиблар:

Саидов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хўжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Таҳририят аъзолари:

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Аҳмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Ҳ. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Ғойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярмагов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Саидқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомиллов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Саидов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Ғофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

Тарих ва Жамият илмий журнали
SHAXS VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MULOQOTNING
TAKOMILLASHUVI VA UNING JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI
O'RNI

*Normatov Sanjar - JDPI, "Falsafa,
tarbiya va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy muammolar sabablari shaxs va jamiyat hoyoti bilan bog'liq taraflarini falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqot va munosabatlar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy muammolar, munosabatlar, hamkorlik, shaxs, ijtimoiy guruh jamiyat, bag'rikenglik, aloqa, muvozanat, inson

Annotation: This article provides a philosophical analysis of the causes of social problems today in relation to the life of the individual and society. It is about the interactions and relationships between people.

Keywords: Social problems, relationships, cooperation, individual, social group society, tolerance, communication, balance, human

Аннотация: В данной статье проводится философский анализ причин возникновения социальных проблем на сегодняшний день в отношении жизни личности и общества. Речь идет о взаимодействии и отношениях между людьми.

Ключевые слова: Социальные проблемы, отношения, сотрудничество, личность, социальная группа, общество, толерантность, общение, равновесие, человек

Davlatning rivojlanishi uning taraqqiy etishi avvola shu yurtda istiqomat qiluvchi davlat boshqaruv organlari, ijtimoiy guruhlar, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va tartibga solinganligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki Shaxs - ijtimoiy va shaharlararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatining sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.

Ana shu asoslarga tayangan holda jamiyat va davlat hayotida mavjud ijtimoiy muammo yechimi borasida turli xil qarashlar mavjud. Bunda sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir u mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi bu harakatlar asosida ijtimoiy muammolar shaxs o'zligi bilan qisman bog'langan bo'lsada Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat muloqoti tizimida insonning tub mohiyatini anglash uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy

Тарих ва Жамият илмий журнали

va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rnini va mavqegini bilish zarur.

G. Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlari bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdrida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkiala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F. Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi. Inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga talluqli bo'lgan eng muxim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan xam ob'ekt, xam sub'ekt bo'lishlikdir¹.

Shaxsga talluqli bo'lgan fazilatlaridan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'ektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening xayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muxit kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiqlanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyat nisbatan barcha tartib - qoidalarga qabul qiluvchi sub'ekt bo'lsa, jamiyat ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla, o'quv maskanlar, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog'cha, mahalla maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib,

¹ Shodmonqul Azizov. Shaxs va jamiyat. –Toshkent “Sharq” NMAK, 2010. 49-b

Тарих ва Жамият илмий журнали

ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki shifokor, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shaklanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekistan sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi².

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs, ijtimoiy norma-shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq atvoriga nisbatan ishlab chikkan va kupchilik tamonidan e'tirof etilgan harkatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insoning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarini bajarishi lozimligi norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hokazo. Bu normalarni ayrim alohida odam ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tamonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tamonidan qay darajada bajarilish yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs haqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bulib, ularning borligi tufayli biz xar bir aloxida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qomaslikka harakat qilamiz.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlaridagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stependiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarini xam ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin

² Shodmonqul Azizov. Shaxs va jamiyat. –Toshkent “Sharq” NMAK, 2010. 79-b

Тарих ва Жамият илмий журнали

qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakterlaridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra kimdir «tartibli,ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir bemani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Shu tariqa shaxsning o'zini takomillashtirib borishi ijtimoiy muhitga ham ijobiy tasir qiladi. Bu o'z o'rnida jamiyatning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.